



**RANG VA SHAKL ORQALI TAFAKKURNI UYG‘OTISH: 5–6-SINF  
O‘QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA  
TASVIRIY SAN‘ATNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI  
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI, NUKUS TUMANI MISOLIDA)**

**Tolegenova Nishangul**  
Nukus DPI magistranti

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada tasviriy san‘at fanining 5–6-sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumani umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi kuzatuvlar, so‘rovnomalalar va amaliy tajribalarga tayangan holda, o‘quvchilarning tasviriy obrazlar orqali fikrlashi, emotsional sezuvchanligi va ijodkorlik salohiyati qanday rivojlanishi o‘rganilgan. Maqolada innovatsion metodlar va interfaol mashg‘ulotlarning ijodiy tafakkurga ijobiy ta‘siri yoritiladi.

*Kalit so‘zlar:* tasviriy san‘at, ijodiy tafakkur, didaktik imkoniyat, estetik tarbiya, maktab o‘quvchilari, Nukus tumani.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarda tasviriy san‘at orqali badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirish, tafakkurni kengaytirish va his-tuyg‘ularni obrazli ifoda qilish orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumani maktablarida olib borilgan amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, tasviriy san‘at darslari o‘quvchilarning individual salohiyatini ochish, mustaqil fikrlash va emotsional sezgirlikni oshirishda samarali vosita bo‘la oladi.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ta‘lim jarayonining maqsadi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining ijodiy tafakkuri, shaxsiy salohiyati va estetik qarashlarini shakllantirishga qaratilmoqda. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarning tafakkur doirasini kengaytirish, ularda mustaqil va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tasviriy san‘at shu ma‘noda nafaqat badiiy mahoratni o‘rgatadigan fan, balki bola ongini shakllantiruvchi, ularning ichki dunyosini ifoda etish imkonini beruvchi qudratli vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu fan orqali o‘quvchilar o‘z tasavvurlarini real obrazlarga aylantirish, his-tuyg‘ularini rang va shakl vositasida ifodalash, badiiy-estetik mezonlarni anglash va qadrlashni o‘rganadilar. Ayniqsa, 5–6-sinf o‘quvchilari uchun bu davr muhim psixologik va intellektual o‘sish bosqichi bo‘lib, tasviriy san‘at ularning obrazli tafakkurini rivojlantirishda, dunyoni estetik qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, xususan, Nukus tumani maktablarida olib borilgan kuzatuv va tajriba darslari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy topshiriqlardagi ishtiroki va obrazli tafakkuri ularni yanada faol, erkin fikrlovchi shaxslarga aylantirmoqda. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda bir qancha muammolar – darslarda metodik yondashuvning yetarli darajada takomillashmaganligi, zamonaviy o‘quv materiallari va texnik vositalarning yetishmasligi, o‘quvchilarning estetik ehtiyojlarini to‘liq qondirishdagi cheklolvar ham mavjud.



Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Empirik usullar: 5 ta maktabda 5–6-sinf o‘quvchilari ishtirokida tasviriy san‘at darslari kuzatildi.

So‘rovnoma: o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar orasida savolnomalar o‘tkazildi.

Eksperimental metod: ijodiy mashqlar, loyihaviy ishlanmalar asosida o‘quvchilarning ilg‘or g‘oya ifodalash ko‘nikmalari baholandi.

Taqqoslash va tahlil: darslarda innovatsion metodlar bilan an‘anaviy yondashuvlarning natijalari solishtirildi.

Ijodiy topshiriqlar (masalan, ertak qahramonlarini tasvirlash, tasavvur asosida kompozitsiya yaratish) orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va emotsional ifoda qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Rang tanlash, obyekt joylashtirish, ifoda qilishda erkinlik berilgan sinflarda o‘quvchilar o‘z fikrlarini ishonch bilan ifodalashgan.

O‘quvchilarning ijodiy ishlari asosida tuzilgan baholash mezonlariga ko‘ra, sinfning 73% o‘quvchisida ijodiy tafakkur belgilari (kreativlik, innovatsionlik, obrazlilik) o‘rish kuzatildi.

Darslarda interfaol usullar, vizual-moslashtirilgan o‘yinlar va ko‘rgazmali materiallar qo‘llanganda o‘quvchilar ishtiroki ancha faol bo‘lgan.

Tasviriy san‘at darslarida ijodiy yondashuvlarni qo‘llash nafaqat badiiy ko‘nikmalarni, balki umumiy tafakkur madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda Qoraqalpog‘iston maktablarida moddiy-texnik baza va didaktik resurslarning yetarli emasligi ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, o‘qituvchining metodik yondashuvi, o‘quvchiga erkinlik berish va individual salohiyatga tayanish orqali bu muammolarni qisman bartaraf etish mumkin.

Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalari tasviriy san‘at fani 5–6-sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ayniqsa, Nukus tumani maktablaridagi amaliy tajribalar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Ijodiy tafakkurni rag‘batlantirishda tasviriy san‘atning roli beqiyosdir. Bu fan orqali o‘quvchilar nafaqat chizish yoki bo‘yashni o‘rganadilar, balki ranglar va shakllar vositasida o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlarini va hayolotini ifodalashga o‘rganadilar. Bu esa ularning shaxsiy va intellektual rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Innovatsion metodlar samaradorlikni oshiradi. Vizual o‘yinlar, guruhviy loyiha ishlari, mustaqil grafik topshiriqlar va raqamli texnologiyalarni darsga tatbiq etish orqali o‘quvchilarda nafaqat qiziqish, balki mas‘uliyat hissi, muloqot madaniyati va tanqidiy fikrlash shakllanadi.

Estetik tarbiya va ijtimoiy moslashuv o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Tasviriy san‘at orqali estetik did, go‘zallikka intilish, milliy qadriyatlarini anglash bilan bir qatorda, o‘quvchilarda ijtimoiy muhitga moslashish, guruhda ishlash, empatiya kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar ham rivojlanadi.

O‘quv dasturlarini mahalliy madaniyat va qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhim. Nukus tumani maktablaridagi amaliyot shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning qiziqishi va ijodiy faolligi ularning hayotiga yaqin, mintaqaviy obrazlar (masalan, qoraqalpoq milliy naqshlari, afsonalari) asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda yuqori bo‘lgan.

Moddiy-texnik baza va o‘qituvchi malakasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Maktablardagi zamonaviy san‘at jihozlari, sifatli materiallar bilan ta‘minlash, shuningdek, tasviriy san‘at o‘qituvchilarining pedagogik va metodik bilimlarini yangilash bu jarayonning barqaror va natijador bo‘lishini ta‘minlaydi.



Umuman olganda, tasviriy san'at darslarini ijodiy va interfaol shakllarda tashkil etish, o'quvchilarning individual salohiyatini inobatga olgan holda ularni rag'batlantirish, san'at orqali fikr yuritishga yo'naltirish – nafaqat maktab ta'limi sifatini oshiradi, balki jamiyatda estetik madaniyatli, tafakkurli shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova N. "Tasviriy san'at didaktikasi". – Toshkent, 2020.
2. Sharipova M. "Ijodkorlikni rivojlantirish metodlari". – Nukus, 2021.
3. Dewey J. "Art as Experience". – New York: Minton, Balch & Company, 1934.
4. Vygotsky L. "Imagination and Creativity in Childhood". – 1930.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: "Tasviriy san'at o'quv dasturi", 2019.

